



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 6-may, shanba,
53 (23.774)-son

**KUN
HIKMATI**

O'tganlarni
xotirlash, ishlayotgan
keksalarni qadrlash
ruhingizga tetiklik
baxsh etadi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

Samarqand viloyati hokimining
QARORI

Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari oltinchi chaqiriq sakson beshinchi sessiyasini chaqirish to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan QAROR QILAMAN:

- Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari sakson beshinchi sessiyasi **2023-yil 8-may kuni soat 10:00 da** chaqirilsin.
- Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:
 - viloyat aholisi va ijtimoiy soha obyektlarini 2023-yilda energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash to'g'risida;
 - viloyat mahalliy budgetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida;
 - viloyat hokimining tegishli qarorlarini tasdiqlash.

Viloyat hokimi **E.TURDIMOV**

2023-yil 5-may

2022-yilning 28-oktabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, joriy yilning 1-may sanasidan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi kuchga kirdi.

Viloyat hokimligida mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida mehnat munosabatlari bilan ishlash, amaliyotda mehnat munosabatlari bo'yicha muammolar va ularning yechimiga bag'ishlangan seminarlarda mazkur hujjat mazmun-mohiyati haqida so'z yuritildi. Unda viloyat va tuman (shahar)lar hokimliklari, boshqarma va tashkilotlar mutasaddilari ishtirok etdi.

Viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari B.Rahmatullayev yangi tahrirdagi Mehnat kodeksiga kiritilgan ayrim o'zgarish va qo'shimchalarga to'xtaldi.

- Qonunchilikda xodimning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishda mudatlar xodimlar toifasi va tashkilotning mulkchilik shaklini inobatga olgan holda qo'llanishi, masalan, rahbar xodimlar o'z arizalarini ikki oy oldin, uning o'rinbosarlari bir oy oldin, davlat elementi bilan bog'liq bo'lmagan korxonada xodimlari ish beruvchini yetti kunlik muddatda ogohlantirishi belgilangan, - dedi B.Rahmatullayev. - Xususan, eski tahrirdagi mehnat kodeksining 113-moddasida xodimni ishdan chetlashtirish asoslari va tartibi belgilangan bo'lib, mazkur muddatda ish beruvchi xodimni qancha muddatga ishdan chetlashtirishi aniqlashtirilmagan edi. Endilikda, yangi tahrirdagi kodeksning 151-moddasiga ko'ra, ishdan chetlashtirish asoslari aniqlashtirilishi bilan birga, ish beruvchi xodimni ishdan chetlashtirish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilguniga qadar butun davrga uni ishdan chetlashtirishi belgilandi. Mehnat shartlarini o'zgartirish sohasida eski

HOKIMLIK XODIMLARIGA NECHA KUN TA'TIL BERILADI?



mehnat kodeksining 89-moddasida ish beruvchi xodim rozilgisiz mehnat shartlarini o'zgartirishi mumkinligi va bu borada xodimni kamida ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirishi, taraffar kelishuviga ko'ra, ushbu muddat qisqartirilishi mumkinligi belgilangan. Bu yerda muammo shunda ediki, xodim va ish beruvchi kelishuviga ko'ra, mazkur ikki oylik muddat pullik kompensatsiyaga almashirilishi nazarda tutilmaganligi bois nizoni hal qilishda noaniqliklar vujudga kelar edi. Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 137-moddasi ish beruvchining mehnat shartlarini xodimning rozilgisiz o'zgartirish huquqi

deb nomlanib, endilikda ish beruvchi mehnat shartlarining kelgusidagi o'zgarishi to'g'risida xodimni ogohlantirishning ikki haftadan ortiq bo'lgan muddatini mutanosib pulli kompensatsiya bilan almashirishga haqli. Bunda xodimni ogohlantirish paytidan e'tiboran ikki haftalik ogohlantirish muddati faqat xodimning roziligi bilan pulli kompensatsiya bilan almashirilishi mumkinligi belgilandi. Seminar davomida yangi Mehnat kodeksida xodimlarga beriladigan yillik asosiy ta'til muddati, ish haqi qisman saqlanadigan qo'shimcha ta'tillar hamda ishga qabul qilinayotgan shaxs-

larga sinov muddatlari haqida mutaxassislar tomonidan tushuntirish berildi. Eski tahrirdagi Mehnat kodeksiga ko'ra, xodimga 15 ish kunidan kam bo'lmagan holda yillik mehnat ta'tili berilar edi, - deydi viloyat adliya boshqarmasi bo'lim boshlig'i Orif Muhammadiyev. - Kuchga kirgan Mehnat kodeksida yillik asosiy ta'til muddatining eng kam miqdori 21 kalendar kuni etib belgilandi. Bunda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari xodimlariga davomiylik 27 kalendar kun bo'lgan har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'til beriladi.



Samarqandga dastlabki ELEKTROBUSLAR keltirildi

Samarqand shahrida aholiga jamoat transporti xizmati ko'rsatish tizimi takomillashib, transport parki yangilanib bormoqda.

O'tgan yil yakunida va joriy yil boshida "Maroqand trans 777" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Xitoy Xalq Respublikasida ishlab chiqarilgan, siqilgan gazda harakatlanuvchi 100 ta zamonaviy avtobus keltirilgan edi. Ayni paytda bu transport vositalari aholiga xizmat ko'rsatmoqda.

Kecha Samarqand shahriga Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining "Yashil shahar" loyihasi doirasida dastlabki 6 ta elektrobus olib kelindi. Xitoyning "Yutong" kompaniyasida tayyorlangan ushbu elektrobuslar "Samarqand yo'lovchi trans" davlat korxonasi parkidan o'rin oldi.

Viloyat transport boshqarmasining ma'lum qilishicha, yil yakuniga qadar loyiha doirasida Samarqandga yana 94 ta elektrobus keltirilishi rejalashtirilgan.



BUGUNGI TINCHLIK VA XOTIRJAMLIKNING BAHOSI YO'Q

Markaziy harbiy okrug qo'mondonligi, Kattaqo'rg'on gornizonidagi harbiy qism, tuman hokimligi hamda mudofaa ishlari bo'limi xodimlari Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari Rahmat bobo Qobilov hamda Rayim bobo Yusupovlarning holidan xabar oldi.

- Urushda qanchadan-qancha do'stlarimizni, yaqin safdoshlarimizni yo'qotdik, - deydi Rahmat bobo urushning mudhish xotiralaridan so'zlab. - Uning oqibatlarini, talafotlari millionlab insonlar yostig'ini quritdi. Bugungi tinchlik va xotirjamlikning bahosi yo'q. Uning qadriga yetish, shukronasini qilish lozim.

Faxriylar xalqimiz e'zozi va hukumatimiz e'tiboridan mamnunligini ta'kidladi.

Harbiylar urush qatnashchilariga qimmatbaho esdalik sovg'alarini topshirdi.



SIRDARYOLIK BOLALAR SAMARQANDDA SOG'LOMLASHTIRILMOQDA



Ramazon oyida Sirdaryo viloyatida yashovchi 56 nafar va samarqandlik 145 nafar yuragida tug'ma nuqsoni bor bolalar davlat hisobidan Samarqand viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida operatsiya qilinishi haqidagi xabarlar tarqalgandi. Ana shu xabar ortidan tibbiyot markazida bo'lib, bu haqda batafsil ma'lumot olishga harakat qildik.

(Davomi 2-sahifada) >>>

PILLANING QIYMATI, PILLACHINING QADRI ORTYAPTI



Hozirda oltmishdan ortiq mamlakatda pilladan ishlab chiqariladigan mahsulotlar dunyo to'qimachiligining 0,2 foizini tashkil etsa-da, 20 dan ortiq mamlakatdagina pilla yetishtiriladi. Dunyoda pilla yetishtirish miqdori bo'yicha O'zbekiston Xitoy, Hindistondan keyingi o'rinni egallaydi. Mamlakatimiz dunyoda aholi jon boshiga pilla yetishtirish bo'yicha birinchi o'rinda tursa-da, jahon bozorida ulushi - atigi 2,5 foizni tashkil etadi.

Respublikamizda nafaqat yetishtirish, balki pilla hajmini oshirish, shu bilan birga, undan jahon andazalariga mos tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Chunki pillani qayta ishlash orqali atlas, adras, ipak gilam, tibbiyot, to'qimachilik, mudofaa va iqtisodiyot tarmoqlari uchun kerakli bo'lgan bir qancha mahsulot olinadi.

(Davomi 2-sahifada) >>>



SIRDARYOLIK BOLALAR SAMARQANDDA SOG'LOMLASHTIRILMOQDA

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

O'TGAN YIL 600 NAFAR BOLANING YURAGI OPERATSIYA QILINDI

Markazimizda kardiokirurgiya bo'limi tashkil etilib, bolalarda uchraydigan yurak nuqsonlari jarrohlik yo'li bilan bartaraf etilayotgani keyingi yillarda yurtimiz sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar samarasi bo'ldi, - deydi viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi direktori Mamatqul Azizov. - Xorijdagi tibbiy markazlarda ishlayotgan o'zimizning mutaxassislarimiz davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizga taklif etilib, ularga chet eldagidek sharoit yaratib berildi, ish haqi to'lanmoqda. Buning natijasida shu paytgacha katta mablag' evaziga faqat xorijda bajarilgan jarrohlik amaliyotlari o'zimizning tibbiy markazlarda amalga oshirilmoqda.

Bizda ham dastlab Moskvadagi A.Bakulev nomli yurak-qon tomir kasalliklari jarrohligi ilmiy-tadqiqot institutida faoliyat olib borayotgan mahalliy mutaxassislar ishga taklif etilib, bolalar yurak jarrohligi yo'lga qo'yilgandi. Yaqinda respublika bolalar milliy tibbiyot markaziga rahbar bo'lgan Maqsud Saidov ana shunday ilk mutaxassisimiz edi. Bu sa'y-harakatlarimiz o'z samarasi berdi va yildan-yilga ushbu yo'nalishdagi ishlarimiz ko'lami kengayib bormoqda.

Birgina o'tgan yilning o'zida 600 ga yaqin bolada yurak operatsiyasi o'tkazilib, ular sog'lomlashtirildi. E'tiborsiz, bu jarrohlik amaliyotlarining 400 dan ortig'i davlat, mahalliy budjet va turli jam'armalar, tibbiy sug'urta mablag'lari hisobidan bajarildi. Chunki yurakda amalga oshiriladigan bitta jarrohlik amaliyoti uchun kamida 20 million so'm pul sarflanadi. Har qanday oila ham bu mablag'ni to'lay olmasligi mumkin. Shuning uchun davlatimiz rahbari tashabbusi va e'tibori bilan bu yil ijtimoiy ko'makka muhtoj, kam ta'minlangan oilalardagi bemorlarni sog'lomlashtirish, ularada murakkab jarrohlik amaliyotlarini bajarish uchun 90 milliard so'm mablag' ajratilmoqda. Jumladan, bizning tibbiy markazimizga Samarqand va Sirdaryo viloyatlaridagi 201 nafar boladagi tug'ma yurak nuqsonlarini operatsiya qilish uchun 5 milliard 300 million so'm mablag' berilmoqda. Shuning hisobidan hozirda ana shu bemor bolalarni sog'lomlashtirish boshlandi.

Sirdaryo viloyatida tug'ma yurak nuqsoni bilan ro'yxatga olingan bolalar markazlashgan tarzda ota-onasi bilan birga markazimizga keltirilib, yana bir bor tekshiruvdan o'tkazildi. So'ngra ularni operatsiya qilish jadvali tasdiqlanib, shu asosida markazga chaqirilmoqda. Har kuni ikki-uch nafar bolada jarrohlik amaliyoti bajarilmoqda.

58 YURAK SOG'LOM URA BOSHLADI

2019-yilda xorijdan kelib, Samarqandda ish boshlagan tibbiyot fanlari nomzodi Niso

Turdiyeva ayni paytda markaz kardiokirurgiya bo'limi boshlig'i. Yosh mutaxassis uch yildan buyon har yili yuzlab jarrohlik amaliyotlari o'tkazib, xasta qalblarni davolamoqda.

- Xalqimizga yordamchi tegayotganidan, bolajonlarimiz sog'lom hayotga qaytayotganidan xursand bo'laman, - deydi Niso Turdiyeva. - Mazkur ijtimoiy aksiya davomida qisqa vaqt ichida sirdaryolik 18 nafar, samarqandlik 40 nafar bolada operatsiya o'tkazildi va bu bolalarning barchasidagi yurak nuqsonlari bartaraf etildi. Qolgan bemorlar ham belgilangan vaqtda operatsiya qilinib, tez orada sog'lom hayotga qaytadi. Bu davlatimizning yosh avlod salomatligiga bo'lgan juda katta e'tibori.

Xorijda bunday yurak operatsiyalari bolalarning chaqaloqligidayoq bajariladi. Bizda esa shu paytgacha, tana vazni 10-15 kilo bo'lsin, yoshi kattaroq bo'lsin, degan qarash bo'lgan. Vaholanki, bolalarda shunday yurak xastaliklari uchraydiki, uni chaqaloqlik paytida operatsiya qilib, sog'lomlashtirish taqozo etiladi. Chunki bu ish ertaroq bajarilmasa, boshqa xastaliklar kelib chiqishi mumkin. To'g'ri, esini tanib qolgan bolaga nisbatan go'daklarda operatsiya o'tkazish biz uchun biroz murakkab bo'ladi, lekin bu bemor uchun foydali. Shuning uchun hozirda yurak nuqsoni bilan tug'ilgan bolalarda ertaroq jarrohlik amaliyoti o'tkazishga harakat qilyapmiz. Yaqin orada tibbiy markazimizda chaqaloqlar kardiokirurgiyasi bo'limi ham tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Darvoqe, markazda xorijdan mutaxassislar taklif etilib, kardiokirurgiya bo'limi ochilgan bo'lsa, endilikda Samarqand davlat universitetida kardiokirurgiya bo'yicha ordinatura tashkil etilib, Rossiyadagi nufuzli tibbiyot universitetlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilibdi. Ya'ni, uch yillik ordinaturaning 1,5 yili Samarqandda, 1,5 yili Rossiyadagi oliy o'quv yurtlarida kechadi. Yaqinda ana shu dastur bo'yicha 8 nafar dastlabki mutaxassislar o'qishni yakunlab, Samarqanddagi tibbiy markazda faoliyat boshlaydi.

BO'LAJAK KONCHI YURAK XASTALIGIDAN QUTULDI

Sirdaryo viloyati Sardoba tumanidan kelgan Shohsanam Tugalovaning aytishicha, qizi - Dilnura yurak nuqsoni bilan tug'ilgan. Bu yil sakkiz yoshga to'lgan. Ammo shu paytgacha uni operatsiya qildirish uchun imkoniyati bo'lmagan. - O'zi tuzalib ketadi, deb yurardik - deydi Sh.Tugalova. - Davolatishga qo'limiz ham kaltalik qilardi. Ijtimoiy ko'makka muhtojligimiz sababli mana shu ijtimoiy aksiya doirasida Samarqandga chaqirib, operatsiya qilishdi. Kelganimizda o'n kundan oshdi, qizim sog'lom bolalarday nafas olmoqda. Davlatimizdan, shifokorlardan minnatdormiz.

Samarqand viloyatining Narpay tumani-

da yashovchi 17 yoshli Hasan Temirov ham yurak nuqsoni bilan tug'ilgan. Bu oila ham operatsiyaga imkoniyat topolmagan.

- Yana 2 nafar bolam bor, ular sog'lom tug'ilgan, - deydi Gulzoda Temirova. - O'g'lim ulg'aygan sari nafas olishi qiynlashib, ozroq yursa, charchab qoladigan bo'ldi. Yolg'iz onaman, nima qilishni bilmayman, faqat Allohdan najot so'rayman. Bolamni davlat hisobidan operatsiya qilib berishdi. Prezidentimizga mingdan ming rahmat!

- Yuraganimda tez charchab qolardim, yaxshi nafas ololmasdim, - deydi Hasan. - Ammo ko'nglimda konchi bo'lish niyati bor edi. Bu holatda orzuimga yetolmayman, deb o'ylardim. Mana endi operatsiyadan keyin hammasi o'zgardi. Yuragim urishi ham, nafas olishim ham juda yaxshi. Endi niyatim qat'iy - maktabni bitirib, albatta, konchilik texnikumida o'qiyman.

Sirdaryoning Xovos tumanidan kelgan Sevara Egamovaning aytishicha, beshinchi farzandi - Baxtigul daun sindromi bilan tug'ilgan. Yuragida ham xastalik bo'lgan, lekin jarrohlik amaliyoti bajarilmagan.

- Kasallik o'pkasiga ta'sir ko'rsatgach, ikki yil oldin Toshkentda operatsiya qildirgandik, - deydi Sevara Egamova. - Keyinchalik kasallik oyog'iga asorat bera boshlagach, xudodan madad kutib, faqat duo qildirdim. Mahallada "Ayollar daftari"da ro'yxatda turamiz. Davlat tomonidan turli yordamlar beriladi, ammo bolamga qarab, hech narsa ko'zimga ko'rinmasdi. Yaqinda Ramazon oyida Prezidentimiz g'amxo'rliqi bilan bunday bolalar Samarqandda bepul operatsiya qilinishini aytishganda, quvonchim ichimga sig'may ketgandi. Shukur, operatsiya yaxshi o'tdi. Bizga ko'mak berganlardan minnatdorman!

SAMARQANDLIK SHIFOKORLAR QASHQADARYODA OPERATSIYA QILDI

O'tgan hafta samarqandlik shifokorlar Qashqadaryo viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazida ilk jarrohlik amaliyotini bajaribdi.

- Qarshidagi tibbiyot markazida ham kardiokirurgiya bo'limi tashkil etildi va bizda ishlagan shifokor u yerda ish boshladi, - deydi Samarqand viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi direktori o'rinbosari Fazliddin Fayzulloyev. - Hamkasblarimizga yordam berish maqsadida o'tgan hafta Qashqadaryoga borib, ilk yurak operatsiyasini o'tkazib keldik. Yurtimizda yuqori texnologiyali bunday jarrohlik amaliyotlarining bajarilishi aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat darajasini oshirishga turk bo'ladi, sog'liqni saqlash tizimi rivojlanadi.

G'olib HANOV.

Alisher ISROILOV olgan suratlar.

Pillaning qiymati, pillachining qadri ortyapti

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Shu bois respublikamizda pillachilik sohasini rivojlantirish, ishlab chiqariladigan mahsulot turlarini kengaytirish, shuningdek, pillachilik tarmog'i korxonalarining eksport va investitsiya faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu chora-tadbirlar pilla xomashyosi yetishtirish hajmini oshirish, uni qayta ishlash hisobiga eksportbop ipak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, shuningdek, respublikamizning chekka hududlaridagi aholi, ayniqsa, ayollar bandligini ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, jahon bozori konyunkturasi tez fursatlarda o'zgarib borayotganligi, iste'molchilarning talablari kuchayayotganligi, shuningdek, xorijiy bozorlarda o'zbek mahsulotlariga bo'lgan talab oshayotganligi pillachilik sohasini rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishini talab qilmoqda.

Pillachilik tarmog'ida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, sohani jadal rivojlantirish va diversifikatsiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster usulini keng joriy etish, pillani chuqur qayta ishlashda investitsiyalar hajmini oshirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish talabi yuzaga kelmoqda.

Raqamlarga qaraydigan bo'lsak, birgina 2018-yilda viloyatimizda pillani qayta ishlash sohasida atigi 6 ta korxonada faoliyat

yuritgan bo'lsa, 2022-yilda ularning soni 10 tadan ortdi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, bugungi kunda ipakchilikni rivojlantirishda chin ma'noda yangi bosqich boshlandi. Xususan, 2018-yilda viloyatimizda bu sohada eksport hajmi 2 million 287 ming AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 19,5 million AQSH dollariga yetdi. To'rt yil avval sohada 34 mingdan ortiq aholi ish bilan ta'minlangani holda 2022-yilda

1144 ta inkubist yordamchisi jalb etilgan.

Bundan tashqari, ipak qurti boqish davrida 115 ming 862 nafar fuqaro ishga jalb qilinib, ularning bandligi ta'minlandi. Pillani qayta ishlash korxonalaridan tomonidan pilla boquvchilarga bo'nak pullari va mavsumga kerakli inventarlar (to'shama qog'oz, termometr, psixrometr, formalin, bo'z) xazirasi yaratildi.

Bugungi kunda viloyat bo'yicha



ipakchilik bilan shug'ullanuvchilar 15,5 mingdan oshdi.

2023-yilda ham viloyatimiz tumanlarida bahorgi pilla yetishtirish ishlari davom etmoqda.

- Joriy yilda pillakorlarimiz 57 ming 329 quti ipak qurti parvarishlab, 3325 tonna pilla xomashyosi yetishtirish rejalashtirilgan, - deydi viloyat "Agro Pilla" MCHJ bosh agronomi Akmal Bobomurodov.

- Hozir viloyatimizda 11 ta pillani qayta ishlash korxonasi pillachilik klasteri asosida faoliyat yuritmoqda. Mavsumga 230 ta pillachilik agronomi, 572 ta inkubist va

ipak qurti urug'larini jonlantirish uchun talab etiladigan 572 ta inkubatoriya to'liq jihozlandi, tumanlardagi inkubatoriyalarda 57329 quti ipak qurti urug'lari jonlantirilib, boquvchilarga tarqatildi.

Pillachilik zvenolariga va kasanachilarga inkubatoriya dan ipak qurti bilan birgalikda har bir quti uchun 250 ming so'mdan (bo'nak) naqd pul tarzida berildi.

Hozirgi kunda ipak qurtlarining 17318 qutisi 3 yoshda, 38039 qutisi 4 yoshda va 1972 qutisi 5 yoshda parvarishlanmoqda.

O'.XUDOYBERDIYEV.

Nobel mukofoti sohibi

SamDuda ma'ruza o'qidi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida kimyogor olim, Nobel mukofoti sohibi Aziz Sanjar miya saratonini davolashning innovatsion usullariga bag'ishlangan ma'ruza qildi.

Professor Aziz Sanjar saraton tufayli zarar ko'rgan DNKnI tuzatish, saraton kasalligini davolash va biologik soat bo'yicha o'z tadqiqotlari natijasida 415 ta ilmiy maqola va 33 ta kitob nashr etgan. Olim saraton kasalligini davolash maqsadida olib borgan tadqiqotlari natijasida turli ilmiy mukofotlarga sazovor bo'lgan.

Aziz Sanjar DNKnI tiklash bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlari uchun amerikalik Pol Modrich va shved olimi Tomas Lindahl bilan birgalikda 2015-yilda kimyo fanlari bo'yicha Nobel mukofotini oldi. Bu uch tadqiqotchi 30 yil davomida bir-biridan mustaqil ishlab, DNKnI tiklash mexanizmlarining biokimyoviy jihatlarni kashf etgan.

Olim universitet professor-o'qituvchilari va talabalarga miya saratonini davolash ustida olib borgan ilmiy tadqiqotlari haqida so'zlab berdi. Miya saratonini oldindan aniqlash, zararlangan hujayralarni topish va davolash muolajalarini olib borishning innovatsion usullarini slaydlar orqali tushuntirdi.



Shundan so'ng universitet rektori Rustam Xolmuradov oliy ta'lim muassasasida Aziz Sanjar nomidagi stipendiya ta'sis etilganini e'lon qildi. Ushbu stipendiya sazovor bo'lgan kimyo fakulteti magistranti Shuhrat G'aybullayev va kimyo fakulteti talabasi Komila Bebitovaga olimning o'zi guvohnoma va medallar topshirdi.

Uchrashuvda Turkiyaning TUBITAK fondi prezidenti Hasan Mandal qatnashib, fond tomonidan o'zbekistonlik talabalarga yaratiladigan imkoniyatlar haqida ma'lumot berdi.

Tadbir so'ngida Nobel mukofoti sohibi Aziz Sanjarga Samarqand davlat universitetining esdalik medallari topshirildi.

Xurshida ERNAZAROVA.

"Zarafshon" gazetasi 2023-yil 4-martdagi 26-sonida chop etilgan "Ta'limdagi ta'tilni qishga ko'chirish" nomli maqolani o'qib, quyidagi mulohazalarga bordim.

Haqiqatan respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari va oliy o'quv yurtlarining o'quvchi-talabalari uchun ta'til davrlari (shuningdek, o'quv yilining boshlanishi, davomiyliyi va yakunlanishi ham) sobiq ittifoq davrida shakllangan. Bunday ta'lim jarayoni nafaqat ittifoqda, balki dunyoning aksariyat mamlakatlarida ham amal qilgan.

Aytmogochi bo'lganim, ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yishning o'ziga xos va o'ta nozik jihatlari bor. Mana shu o'ziga xosliklarni har bir mamlakatning tabiiy-iqlim sharoiti, aholi mentaliteti, milliy-ma'naviy qadriyatlar, an'ana va udumlari, inson ruhiyati tashkil etadi. Bu jihatlarni inobatga olmasak, ta'lim jarayonini

Tartib o'zgarimagan ma'qul

yo'lga qo'yishda murakkabliklar yuzaga keladi. Sobiq Sadridin Ayniy nomidagi Samarqand davlat pedagogika institutidagi tahsilimiz davomida umumiy pedagogika asoslarini, bolalar psixologiyasi va pedagogikasi nazariyasini chuqur o'rganmiz. Shuningdek, ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish masalalari ham chetda qolmagan. Oliyohda olgan bilimlar va qariyb ellik yillik mehnat faoliyatim davomida orttirgan tajribamdan kelib chiqib, ta'lim ta'tili bo'yicha o'z nuqtai nazarimni bildirmoqchiman.

Birinchiidan, ta'lim muassasalaridagi o'quv yili davrining davomiyliyi va ta'tillar o'zgarimagan ma'qul. Chunki ushbu tartib uzoq yillardan buyon shakllangan va aholining ongu shuuriga singib ketgan. Odamlar ruhiyati ta'lim muassasalarida o'quv yili 1-sentabrda boshlanib, 25-may kuni tugashi haqidagi axborotni o'ziga qabul qilib bo'lgan. Bu tartibni o'zgartirish uchun

inson ruhiyatini tuzatishga to'g'ri keladi. Bu ish esa odatda barcha qilinishi lozim bo'lgan tashkiliy-huquqiy tadbirlar ichidagi eng murakkabi hisoblanadi.

Ikkinchiidan, ta'limdagi ta'til davri belgilashda mamlakatimiz tabiiy iqlim sharoitini inobatga olish zarur. Respublikamiz hududida iyun, iyul, avgust oylarida ob-havo qay darajada isib ketishini hammamiz yaxshi bilamiz. Ayniqsa, keyingi paytda ayrim hududlarda anomol havo isishi (+45 -+50 daraja) qayd etilayotganligidan xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim muassasalaridagi o'quv yili va ta'tillar davriyilini o'zgartirish mutlaqo mumkin emas. Boisi ob-havoning issiqdigi tibbiyot qonunlariga ko'ra, insonning fiziologik faolligi ancha pasayadi, miyaning axborotni qabul qilish qobiliyati ham ancha pasayib, tanada lohaslik alomatlar paydo bo'ladi, odamlarning uyquga moyilligi kuchayadi, xotira zaiflashadi.

Bunday vaziyatda bolalarni o'qitish yaxshi samara bermaydi.

Shunday ham sentabr oyining dastlabki ikki o'n kunligi va may oyining oxirgi ikki haftasi davomida o'quvchilarning issiqdan aziyat chekayotganligi o'qituvchi-murabbiylar va ota-onalarga yaxshi ma'lum.

Uchinchiidan, o'quv yili davomida toliqqan o'quvchi-o'qituvchilarning hordig'ini chiqarish ham bo'lajak o'quv yiliga tayyorgarligi, ularning fanlarni yaxshi o'zlashtirishi va samarali mehnat qilishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoz faslida o'quvchilarning tog'bag'ridagi sog'lomlashtirish oromgohlarida dam olishlariga nima yetsin!

Hatto o'quvchi yozgi uch oylik ta'til davrida mol boqsa yoxud biron-bir korxonada ishlab (albatta, qonun ruxsat etgan hollarda) pul topib, ota-onasiga ro'zg'or tebratishda yordamlashsa yoki o'quvchi oila yumushlari bilan bog'liq xo'jalik ishlarini yozning issiq kunlaridan foydalanib, bitkazib olsa, o'ziga ham, oilasiga ham foydali.

Bugungi o'quvchi ertaga jamiyatning faol a'zosisga aylanadi, oila quradi, uni tebratishi kerak. Yozgi ta'til davrida olgan mehnat tajribasi unga bir umr asqotadi. Agar ta'til davri qishning qahraton kunlariga to'g'ri kelsa-chi? Bolalar issiq xonada qamallib olib, zerkishdan dunyoga sig'may ketadi-ku? Ochiq sport inshootlarida shug'ullana olmaydi, suv havzalarida suza olmaydi, tog' bag'riga bora olmaydilar...

To'rtinchiidan, mamlakatimiz aholisining askariyati mehnat ta'tilini yoz faslida olib, farzandlari bilan dam olishga odatlangan. Mabodo, o'qituvchilar uchun yoz fasli o'qish davri bo'lsa, ota-onalar ham mehnat ta'tilini qishning qorli-ayozli paytida olishlariga to'g'ri keladi.

Xullas, ta'lim ta'tili tartibini o'zgartirishning asoslari anchagina. Ularning ayrimlarini sanab o'tdik, xolos.

Yo'ldosh SUYUNOV.

Aks-sado

Ayni kunlarda jahon hamjamiyati Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim oy harakatining 160 yilligini nishonlamoqda. Joriy yilda mazkur sanaga bag'ishlangan respublika tadbirlari Samarqand shahrida o'tkaziladi.

1859-yilning iyunida shveysariyalik tadbirkor A.Dyunan Italiya-tasodifan Avstriya-Fransiya qo'shinlari o'rtasidagi qirg'inbarot urushga duch kelib qoladi. Uning jang yamdonidagi yaradorlarga ko'rsatgan yordami haqidagi "Solfereno xotiralari" kitobi 1863-yilda Shveysariyada "Yaradorlarga yordam ko'rsatish" tashkilotining tashkil etilishiga sabab bo'lgan edi.

Keyinchalik mazkur tashkilot Shveysariya davlat bayrog'ining teskari ranglarida – oq fonda Qizil Xoch timsolini qabul qilib, Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasi deb nomlanadi. 1868-yilda esa Turkiya Qizil Xoch timsoli o'rniga Qizil Yarim oyni qabul qildi. Shundan so'ng musulmon davlatlarda tashkil etilgan jamiyatlar mazkur timsolni qabul qilishdi. 2005-yildan Qizil Kristall timsolidan ham foydalanilmoqda.

Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasi - qurolli to'qnashuvlarda o'zining mintaqaviy vakolatxonalarini orqali jabrlanganlarga chodirlar, ko'rpa-to'shak, kiyim-kechak, oziq-ovqatlar, sanitar-gigiyenik vositalarni yetkazib beradi. Tinch davrlarda xalqaro insonparvarlik huquqlari targ'iboti bilan shug'ullanadi. Shuningdek, jamiyat Federatsiyasi tabiiy, texnolog va ekologik turdagi ofatlarda jabrlanganlarga yuqorida keltirib o'tilgan muruvvat yordamlarini ko'rsatib kelmoqda.

Jahonning 196 mamlakatida o'z bo'limlariga ega bo'lgan harakatning faoliyati insonparvarlik, xolislik, betaraflik, mustaqillik, ko'ngillilik, yakka-yagonalik, umumiylik kabi yetti tamoyil asosida olib boriladi.

O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati 1925-yil 14-noyabrda tashkil etilgan bo'lib, qisqa vaqt ichida birinchi sanitaraviy aviat-siyasi, dizenfeksiya stansiyalari, qadoqlash sexlari, tish davolash muassasalariga ega bo'lgan. Ikkinchi jahon urushi davrida jamiyat tibbiyot xodimlari va sanitar drujinalarini tayyorladi. Ko'ngillilar safida yaradorlarga xizmat ko'rsatgan o'zbekistonlik to'rt nafar hamshira, jumladan, samarqandlik Antonina Pixteyeva ham Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasining oliy mukofoti - Flores

8-may – Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim oy harakatiga asos solingan kun Ko'ngillilarni birlashtirgan jamiyat



Naytengyl medali bilan mukofotlangan.

Turli davlatlarda sodir bo'lgan kuchli yer silkinishlari, ko'chki, suv toshqinlari kabi tabiiy ofatlarda jamiyat tomonidan insonparvarlik yordamlari ko'rsatib kelinmoqda. Jumladan, joriy yilda Turkiyada sodir bo'lgan zilziladan zarar ko'rgan aholi uchun yig'iladigan karavot, chodir, oshxona jihozlari to'plamlari, ko'rpa-to'shak to'plamlari, oilaviy gigiyena to'plamlaridan iborat muruvvat yordamlarini jo'natdi.

O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining viloyat tashkiloti aholini ijtimoiy himoyalashda salmoqli ko'mak ko'rsatmoqda. Jumladan, oxirgi uch yil ichida Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim oy jamiyatlar Federatsiyasi bilan hamkorlikda "Markaziy Osiyo davlatlarida mahalliy darajada tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish orqali mahallalar barqarorligini kuchaytirish" loyihasi bo'yicha Samarqand shahri, Jomboy, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Urgut tumanlaridagi 20 ta

mahalla va maktablarda favqulodda vaziyatlarda qutqarish va birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Ularga 141 million so'mdan ortiq qiymatli asbob-uskunalar va jihozlar yetkazib berildi.

Shuningdek, Samarqand shahridagi 8 ta mahallada ariqlar ko'ngillilar tomonidan tozalanib, suv yo'llari ochib berildi. Monolit devor barpo qilinib, beton lotoklar o'rnatildi va oqova va suv quvurlari yotqizildi. Suv yig'ish quduqlari kovlanib, sim to'rlari bilan o'raldi. Ayni kunlarda Bulung'ur, Toyloq tumanlari va Samarqand shahridagi bir qator mahallalarda va maktablarda aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash, birinchi yordam ko'rsatishga o'rgatish, tabiiy ofatlarning oldini olish va yumshatishga qaratilgan keng ko'lamdagi o'quv mashg'ulotlari davom etmoqda. Favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan 162 nafar ko'ngillilar tayyorlandi. O'tgan yili "COVID-19 ga javob beramiz" dasturi doirasida 1280 nafar kishiga yuvish vositalari tarqatildi, viloyatdagi 3 ta ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalarining tibbiyot xodimlariga 600 dona namlovchi kremklar topshirildi. Viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasiga 90 ta metall karavot, ko'rpa-to'shak yetkazib berildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj 100 ta oilaga 43,6 million so'mlik sanitar-gigiyenik vositalar tarqatildi.

"Meh-r-shafqat xizmati" guruhi 1075 nafar fuqaroga 180 million so'mdan ortiq pul mablag'lari, oziq-ovqat majmualari va xo'jalik buyumlari tarqatildi. 20 million so'mlik nogironlik aravachalari, tanometrlar, hassalardan iborat reabilitatsion jihozlar va sanitar-gigiyenik vositalar, 25 nomdagi inventarlar xarid qilindi. Keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni parvarishlovchi xodimlarni tayyorlash bo'yicha tashkil etilgan o'quv kurslarida 575 kishi favqulodda holatlarda birinchi yordam ko'rsatish asoslariga o'rgatildi.

Munira ARIPOVA,

O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati viloyat tashkiloti raisi.

Xotira

Toshbo'ri Rahimovich bilan 30 yilga yaqin birga ishladik. Yosh mutaxassis chorvachilik sohasidagi deyarli barcha bosqichlarni o'tadi: amaliyotchi, oddiy xodim, kichik veterinar, bosh veterinar va nihoyat viloyat qorako'Ichilik birlashtirish rahbari darajasigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

MA'RIFATGA OSHNO EDI



(O'ngdan birinchi) Toshbo'ri Qilichev safdoshlari davrasida

Biz qishloq xo'jaligi, xususan, chorvachilik yuzasidan ko'p bor suhbatlashganmiz, vaqti kelganda men, keyinchalik u kishi bir-birimizga rahbar bo'ldik, bir-birimizdan o'rgandik, bir-birimizga o'rgatdik.

T.Qilichev mehnat faoliyati davomida viloyatda o'ziga munosib martabaga erisha oldi. Nurobod tumanining birinchi rahbari, viloyat ijroqo'lining va nafaqaga chiqqach, viloyat veterinariya boshqarmasi boshlig'i vazifalarida ishladi. Toshbo'ri Rahimovichning bitta fazilatiga - o'z sohasida yangilikka o'chligiga, ko'p kitob o'qishiga, tartib-intizomiga, odamlar bilan doimo xushchaqchaq muomala qilishiga havasimiz kelgan. Shu sababli, bir-birimizning davramizga intilib yashaganmiz. Xususan, viloyatning eng olis "Qarnabota" xo'jaligida rais bo'lganida viloyatda qorako'l qo'ylari sonini bir milliondan oshirish barobarida aholi turmush farovonligini yuksaltirishga ham munosib hissa qo'shdi. Qorako'lchilar viloyat idorasini boshqarganda esa terining noyob navlarini ko'paytirish, cho'pon-cho'liqlarning manfaatdorligini ko'tardi. Shu sababli rahbariyat nazariga tushib, pillapoyalardan muvaffaqiyatli o'tib, viloyat hokimining o'rinbosari darajasiga yetishdi.

Toshbo'ri Rahimovich ko'p badiiy kitob o'qish bilan birga, ijodkorlar bilan juda yaqin edi. Uning xonadonida yoki ishxonasida doimo taniqli shoirlar, yozuvchi va jurnalistlarga duch kelardik. Asarlar muhokamasida ham xuddi adabiyotchilar kabi ishtirok etardi. Shu sababli viloyatdagi ijodkor ziyolilar o'rtasida yaxshigina obro'ga ega edi. Bundan tashqari, davlatimizning bir qator orden va medallari. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan chorvador" unvoni bu insonning salohiyati ifodasidir.

T.Qilichev shogirdparvarligi tufayli ko'plab yosh mutaxassislarga o'zini ko'rsatishi uchun imkoniyat yaratdi. Ayniqsa, qishloq yoshlarining haqiqiy suyanchig'i bo'ldi. Binobarin, farzandlarini ham zamonamizga munosib qilib tarbiyaladi va ularning barchasi bugun el xizmatida.

Abdushukur MUHAMMADQULOV,
mehnat faxriysi.

Islom – tinchlik va bag'rikenglik dini

Bu azaliy qadriyatimiz xalqaro miqyosda keng tarqalmoqda

UNESCO tomonidan bag'rikenglikka oid yetmishdan ziyod xalqaro hujjatlar, konvensiyalar qabul qilingan. Xususan, 1995-yil 16-noyabrda tashkilot Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida "Bag'rikenglik tamoyillari to'g'risida"gi deklaratsiya qabul qilingan. Deklaratsiyada ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, jinsi, tili, dini, millatidan qat'i nazar, bag'rikenglikni targ'ib etish, inson huquqlari va erkinliklari-ga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar aks etgan.

Shu kundan e'tiboran 16-noyabr har yili "Xalqaro bag'rikenglik kuni" sifatida nishonlanib kelinmoqda. Bag'rikenglik so'zi deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi mazmunga ega. Ularni umumlashtirib "bag'rikenglik" chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik, o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, muruvvatlilik, himmatlilik, kechirimlilik, mehribonlik, hamdardlik kabi ma'nolarga ega deyish mumkin.

Aslida bag'rikenglik tushunchasi chinakam islomiy fazilat bo'lib, arab tilida «Samaahatul islam» deyiladi. Mustaqillik yillarida o'zining tarkibi va mazmuni jihatidan xilma-xil millat, madaniyatlar birligidan tashkil topgan jamiyatimizda ham millatlararo totuvlikni saqlash, fuqarolarining hamjihatligi va bag'rikengligini ta'minlash sohasida keng ko'lami ishlarni amalga oshirildi. Zotan, xayrli ishlarda hamkor va hamjihat bo'lib yashash, Yaratganning talabidir.

Alloh taolo "Ezgulik va taqvo (yo'li) da hamkorlik qilingiz, gunoh va adovat (yo'li)da hamkorlik qilmangiz!..", deb marhamat qilgan. Shu ma'noda mamlakatimizda e'tiqod erkinligi davlatimizning Asosiy qonunida ham kafolatlantirib qo'yilganini alohida ta'kidlash lozim. U tamoyilning amaldagi in'ikosi sabab yurtimizdagi boshqa tashkilotlar qatori diniy jamoalar ham jamiyat taraqqiyotida tobora faol ishtirok etib, xalqimizning ma'naviyati va qadriyatini tiklash, o'zligimizni anglash, asosiy, mustaqilligimizning mustahkam va boqiy bo'lishiga hissa qo'shmoqda.

Har qanday holatda ham inson o'z hayotini xalqlarning turli tuman urf-odatlar, madaniyat va qadriyatlarini hurmat qilgan holda, bag'rikenglik asosida qurishi zarur. Zero, tinch-totuvlik, bag'rikenglik rivojlanish va taraqqiyot garovidir.

Zoxid BASRITDINOV,
IV akademiyasi kursanti.

Bugungi kunda Zarafshon daryosi yoqasida "Cho'ponota" va "Dahbet" suv havzalari qurilib, yer osti quvurlari orqali shaharning Sug'diyona, Beruniy, A va B mikrotumanlarida joylashgan suv nasos stansiyalarida aholiga yetkazib berilyapti.

Samarqand shahrida yarim milliondan ortiq aholi istiqomat qilishi va kuniga minglab mehmonlar tashrif buyurishini hisobga olsak, ichimlik suviga bo'lgan talab kundan kunga ortib borayotganini ko'ramiz. Lekin o'tgan asrda qurilgan suv inshootlari eskirib qolgan bo'lsa-da, ularni modernizatsiya qilish, yangilarini qurish orqali shahar ichimlik suvi bilan ta'minlanmoqda.

- Shaharda suv ta'minotini yanada yaxshilash maqsadida o'tgan yili 9 ta mahallada ta'mirlalab bo'lib qolgan 3,15 kilometr masofadagi suv quvurlari almashtirildi, - deydi "Samarqand suv ta'minoti" MCHJ Samarqand shahar bo'limi boshlig'i J.Zugurov. - Bundan tashqari, "Suv ta'minoti va oqova suv obyektlari bo'yicha injiniring kompaniyasi" unitar korxonasi viloyat hududiy boshqarmasi buyurtmasi bilan "Cho'ponota" suv inshootidan Ulug'bek rasadxonasigacha bo'lgan 8,1 kilometr yuqori magistral suv tarmoqlari rekonstruksiya qilindi. Usta Umar Jo'raqulov ko'chasidan Sadridin Ayniy ko'chasi bo'yab diametri 1000 millimetrligacha suv quvurlari to'liq almashtirildi. Shuningdek, shaharning Bog'bonlar, Ziyokorlar, Geologlar, Obi rahmat, Qir, Mingtut mahallalarida, Turkiston,



Samarqand shahri suv ta'minoti yaxshilandi

O'zbekiston, Navoiy shoh, G'ijduvon ko'chalarida 36,5 kilometr suv tarmoqlari yangilandi.

O'ta mahallada 55 kilometr suv tarmog'i va 2 ta suvoqova tozalash inshootlarining yangidan qurilib, foydalanishga topshirilishi natijasida aholining oqova suv tarmoqlari bilan ta'minlanishi 72,1 foizdan 80 foizga yetdi. Investitsiya mablag'laridan 3,2 milliard so'm va mahalliy budjetdan 110,5 milliard so'm sarflanib, 94,4 kilometr masofaga oqova suv quvurlari yotqizildi.

Bugungi kunda Samarqand shahridagi 801,4 kilometr yer osti ichimlik suvi tarmoqlaridan 223 kilometr, ya'ni 28 foizi ta'mirlalab ahvolda kelib qolgan. Shuning uchun ham joriy yilda 10 ta ichimlik suvi nasoslari yangisiga almashtirildi. Natijada 3 mingdan ortiq aholining ichimlik suvi ta'minoti yaxshilandi.

Prezidentimizning 2022-yil 25-oktabrdagi "2022-2023-yillarda

mahallalarda infratuzilmani yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan shahardagi mahallalarda joylashgan 20 ta ichimlik suv qudug'i, 46 ta suv nasosini ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

- Shu paytgacha, L.Isayev nomidagi ko'chada 1,5 kilometr, So'zangaron, Qorasuv, Qo'shchinor mahallalarida 1,67 kilometr, Zarafshon mahallasida 2,15 kilometr, Do'stlik mahallasida 1 ta suv inshooti qurilib, 3,95 kilometr masofaga quvurlar yotqizildi. Fidoyilar, Chilustun, O'rta'shiq mahallalarida hamda Kamoliddin Behzod ko'chasida qariyb 4 kilometr masofaga oqova suv tarmoqlari yotqizildi. Yana rejalashtirilgan 14,39 kilometr kanalizatsiya tarmoqlaridan 13,1 kilometrda kovlash, qazish va quvur tashlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Botir MUHAMMADIYEV.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

MINNATDORMIZ!

Qizimiz Nargiza Mamadaminova ancha vaqtdan buyon qornidagi og'riq bilan qiynalib kelardi. Har xil olingan muolajalar vaqtinchalik og'riqni qoldirdi. Bir tanishimni tavsiyasi bilan Samarqand davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli 1-kliniyasi bosh vrachi o'rinbosari, dotsent, jarroh Kamol Saidmurodovga uchrashdiki. U kishi kasallik o't xaltasida ekanini aniqlab, qizimizda jarrohlik amaliyotini o'tkazdi va og'riq dardidan forig' qildi.

Butun oilamiz nomidan jarrohlik amaliyotida qatnashgan kafedra mudiri, professor Azfar Qurboniyozov, iqtidorli jarroh Kamol Saidmurodov, xirurgiya bo'limi mudiri Alisher Zayniyev, katta hamshira Dilnoza Ahmedova, bo'lim bekasi Laylo Ashurova va boshqa xodimlarga chuqur minnatdorlik bildiramiz. Qo'lingiz dard ko'rmasin, aziz shifokorlar!
jasur MAMADAMINOV,
xalq ta'limi a'lochisi, jurnalist,
Urgut shahri.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahar davlat xizmatlari markazi tomonidan 2020-yil 16-noyabrda 914461-respublikasi bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi huzuridagi "Ko'p xonadonli uylarni mukammal va joriy ta'mirlash hamda issiqlik ta'minoti obyektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi" davlat unitar korxonasi Samarqand viloyati filiali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-sentabrdagi "Respublikada kapital qurilish so-

hasida buyurtmachi xizmati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-378-sonli qarorining 1-ilovasi 6-bandiga asosan 2023-yil 1-yanvar kundan boshlab tugatilgan. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgach quyidagi mamlakatda qabul qilinadi: **O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Samarqand shahri Ko'ksaroy maydoni, 1-"A" uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Mamaraximov Baxodirga (2020-yil 25-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning O'zbekiston Respublikasi Samarqand shahri Ko'ksaroy maydoni, 1-"A" uy.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Valixodiyev Farzod Botirovich notarial idorasida marhum Kobilova Muxabbat Mirboboyevnaga (2017-yil 3-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Valixodiyev Farzod Botirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodiyev Farrux Farxo-

dovich notarial idorasida marhum Abidov Baxtiyor Xamidovichga (2020-yil 3-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodiyev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuquryo'1 ko'chasi, 9-"B" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodiyev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Amirov Moxinur Mamasaidovnaga (2022-yil 30-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodiyev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuquryo'1 ko'chasi, 9-"B" uy.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xolmurodov Anvar Xolmurodov o'g'li notarial idorasida marhum Norqulova To'xtaga (2005-yil 10-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xolmurodov Anvar Xolmurodov o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Usmonov Tura-

kulga (2015-yil 20-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rta'shiq mahallasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashirova Dilofuz Ziyadullayevna notarial idorasida marhum Mamasaliyev Aktam Xaydarovichga (2022-yil 9-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashirova Dilofuz Ziyadullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Atamurodov Tursumurodovga (2019-yil 20-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

BEKOR QILINADI

Jomboy tumanidagi "JOMBOY MAXSUS TA'MIRLASH QURILISH" mas'uliyati cheklangan

jamiyati tomonidan ishonchnoma orqali harakat qiluvchi Aripov Muzaffar Jumanazarovich va Oliyeva Bashorat Meyliyevnalari o'rtasida 2020-yil 23-iyulda Samarqand shahri Sug'diyona maskanida joylashgan 58-"A" uyni 36-xonadonli uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasidan tasdiqlanib, 429-raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasi yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

Samarqand shahar 68-umumiy o'rta ta'lim maktabining gerbil dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Fuqaro Sharapova Dilfuza Tolibxonaga qarashli Samarqand shahri Suzangaron mahallasi, S.Xusainov ko'chasida joylashgan 22-uy-joy uchun berilgan kadastr hujjatlari to'plami yo'qolgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99888-660-99-19.

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi hamda "Zarafshon" va "Samarqandskiy vestnik" gazetalarini tahririyati jamoasi "Past Darg'om haqiqati" gazetasi muharriri o'rinbosari G'ayrat BOBOQULOVning vakofati munosabati bilan marhumuning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

G'afur G'ulom tavalludining 120 yilligiga

Mumtoz Sharq adabiyotida alohida e'ti-borda bo'lgan, qayta-qayta murojaat qilingan masalalardan biri vaqt falsafasidir. Hazrat Navoiy devon tartib berganlarida uni inson umriga qiyoslab, to'rt faslga ajratadi. Har bir fasl muayyan vaqt doirasida o'zligini namoyon etadi va o'zidan keyingi faslga yo'l ochib beradi. Shu bois yoshlikda egallanishi zarur bo'lgan ilm-ma'rifatni, kasb-hunarni boshqa faslga ko'chirib bo'lmaydi. Shoir aytganidek, na bahona, na ko'zyosh, na pushaymon o'tgan fursatni ortga qaytarolmaydi. Chunki inson falakning aylanishi, zamonlarning o'tishi, tabiat qonunlariga qarshilik qilolmaydi. Shunday ekan, fursat g'animatligini anglamoq so'z san'atida ko'p bor ta'kidlangan.



VAQT FALSAFASI

"Men Sharq shoiriman. Shuning uchun Sharq klassiklarining hammasi mening xesh-aqrolarim", deya e'tirof etgan G'afur G'ulom mumtoz she'riyatda sayqal topgan Vaqt poetikasidan yaxshi xabardor bo'lgan va bir qator she'rlarida bu tushunchaning mukammal obrazini yaratdi. "Boqiylik", "mangulik", "abadiyat" kabi mavhum tushunchalarni G'afur G'ulom "oy", "hafta", "kun", "mavsum", "fursat", "dam", "daqiqqa", "soniya" singari vaqt lahzalari tarzida konkretlashtirib, hayotiy tasvirlaydi.

Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek, Intizor ko'zlarida halqa-halqa yosh. Sharq she'riyatida lirik qahramonning ichki kechinmalarini, sog'inch, intizorlik, dardu armonlarini ifodalashda "karvon", "sarbon", "tuya", "bo'taloq" kabilar ramziy-majoziy xarakter kasb etadi. Shu she'riy tarbiya ruhida kamol topgan G'afur G'ulom ham buni teran anglaydi. Shayx Sa'diyning "Ey, sarbon..." deb boshlanuvchi g'azali, Gulxaniyning "Tuya bilan bo'taloq" hikoyati kabi asarlarning xotira qatlaridagi yog'dusi g'ayri shuuriy taxlit ana shunday samimiy va haroratli satrlarga ko'chadi.

Diqqat qilinsa, "Zo'r karvon" - bu hayot karvoni, uni to'xtata oladigan kuch yo'q, shu bois u "zo'r". Bo'ta ham shunchaki bo'ta emas, "etim bo'ta", oddiy bo'tadan ko'ra uning yetimligi sog'inch azobini yanada chuqurroq, ta'sirliroq ifoda etadi. Ko'zlar ham har galgidek qora emas, "intizor ko'zlar", ko'zyosh esa shoshqator emas, "halqa-halqa". Negaki, qora so'zi intizor so'zining ma'no ko'laminii ifoda etolmaydi, faqat milliy belgi sifatida tushunilishi mumkin. Ko'z yoshining "shashqator" yo "duv-duv" to'kilishi fojia anglangandan keyin yuz beradigan ruhiy holat ifodasi, intizorlikda esa umidvorlik tuyg'usi yashirin, yosh "halqa-halqa" bo'lganda ham ich-ichdan yig'lash, ham tevarakni ko'rish mumkin.

Kutaman uzoqdan ko'rinsa bir ot Kelayapti deyman ko'rinsa g'ubor. G'afur G'ulomning badiiy mahorati shunda ki, u qo'msash hisiga, sog'inch tuyg'usiga bo'la hayot lahzalarni vaqtning shafqatsiz harakatidan to'xtatib, go'yoki uni turli rakurslardan suratga olayotgandek bo'ladi:

Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas, Shunchalar mustahkam xonai xurshid. Bugun sabza bo'ldi qishdagi nafas, Hezar qonda kezir ertagi umid.

Shoirning nazdida "xonai xurshid", ya'ni Quyosh tizimidagi sayyoralarining harakati ko'not qonuniyatlarini bilan shunchalar mustahkam tuzilganki, hatto qattiq sog'inish, ichikish belgisi hisoblangan kiprik uzilishi ham behuda emas, sabab va oqibat birligi qonuniyatlariga asoslanadi. Shu bois qishdagi nafas bugun sabza bo'ldi, ertagi umidning ro'yobga chiqishi esa hozirgi xatti-harakatga bog'liq.

"Sog'inish" she'rini shoirning uzluksiz va parchalanmas vaqt oqimidan ajratib olingan sog'inch iztirobi tasviri desak, to'g'riroq bo'ladi. Chunki vaqt kechishi bilan tabiatda kechayotgan o'zgarishlar silsilasi lirik qahramon qalbidagi sog'inch hisini yanada kuchaytiradi, ba'zan dilini vasvasalarga soladi.

Kechqurun osh suszak bir nasiba kam - G'afur G'ulom vaqt bo'laklarini shunday mahorat bilan qo'llaydiki, uni boshqa bir sinonimi bilan o'zgartirishning iloji yo'q. Mabodo "kechqurun" o'nida "tush chog'i" desak, birinchidan, hayotiy haqiqatga to'g'ri kelmaydi: urush davri tush chog'ida oshni orzu qilishning o'zi xom-xayollik, ikkinchidan, dilning xufton bo'lishida qorong'ulikning ham hissasi bor.

Balki bir g'alat o'q, yo xavfu xatar Xazinai umrindan yo'qotdi olmos... O'g'lini urushga jo'natgan otaning sog'inch tuyg'usi go'yoki vaqtning chig'iriqlariga solingan-

dek taassurot qoldiradi: Tong otar chog'ida juda sog'inib. Bedil o'qir edim, chiqdi oftob. Loyqa xayolotlar chashmaday tindi, Pok-pokiza yurak bir qatra simob. Nega shoir aynan Bedilni o'qiyapti? Yo qo'lga shunchaki Bedilning kitobi tushib qolganmi? Bizningcha, G'afur G'ulom o'zining ayni holatiga ruhiy yaqinlikni "Abul Maoniy"da, ya'ni Bedilda his qilgan. Chunki Bedil boshqa so'fiy shoirlardan farqli o'laroq tasavvuf masalalarini inson kechinmalari, qalbi, turmush tarzi, oddiy hayotiy masalalari bilan bog'lab tasvirlagan.

Shoir bir she'r doirasida asosiy poetik fikrni rivojlantirar ekan, goh hikoya, goh murojaat uslubiga o'tib turadi. Ayni paytda lirik chekinmalar qilib, o'z shaxsiyati, biografiyasiga oid gaplarni ham singdirib yuboradi. Bunda ham vaqt tushunchasi (tong otar chog'da)ni muayyan faoliyat turi bilan bog'liq tarzda konkretlashtiradi, erta tongda turib kitob o'qiydi, o'rog'u gulqaychi ko'tarib, milliy voqelikka xos ish bilan mashg'ul bo'ladi. "Loyqa xayolotlar"ni bundan o'zgacha yo'llar bilan tindirish mumkinmi?!

G'afur G'ulom she'rlarida vaqt falsafasi go'yoki milliy ob-havodan nafas oladi, sharqona libos kiyadi: ...Xoki anjir tugab, qovun g'arq pishgan Baxtili tong otar chog' uni kuzatdim...

"Vaqt" she'ri G'afur G'ulomning zamon kategoriyasi bilan bog'liq mulohaza va mushohadalarni umumlashtiruvchi mukammal asarlardan biri.

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni Kapalak umriga qiyos etgulik.

Kapalak bor-yo'g'i uch kun hayot kechirar ekan. Mana shu qisqa fursatda tug'iladi, tabiatning bir uzviga aylanadi, guldan gulga qo'nadi, parvoz qiladi, ko'zlarini yashnatadi va o'ladi. Shularni o'ylaganda, kunlar, haftalar, oylar, ba'zan yillarning behuda o'tayotganligidan, umrning bebaho lahzalarni arizmas narsalarga, mayda hoyu havaslarga sarflanayotganidan iztirobga tushadi kishi.

"Vaqt" she'ridagi har bir so'z, har bir detal, gap, poetik g'oyani ochishga yo'naltirilayotgan har bir mushohada vaqt tushunchasiga, uni behuda sarflamaslik masalasiga bog'lanaveradi, o'zining yangidan yangi qirralari bilan namoyon bo'laveradi.

Bunday misollarni yana davom ettirish mumkin. Muhimi shundaki, misradan misraga, bandedand bandga o'tgan sari daqiqa, sonialarning betakrorligi va ahamiyati ochila boradi va she'r so'ngida umrboqiylik mazmuni fursatni g'animat bilib, undan unumli foydalanishda, degan teran xulosa chiqariladi.

G'afur G'ulom qaysi mavzuda she'r yozmasin, avvalo, masalaning mohiyatiga falsafiy aspektga yondashadi. Tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini hamda tarixiy voqelikdan olingan misollar bilan poetik fikrni quvvatlab, asoslab boradi.

O'tkinchi hoyu havaslar yo'lida umrni zoye ketkazmaklik, uning har bir daqiqasini g'animat bilmoq, haqiqiy go'zallik inson ma'naviy olamining boyligi ekanligini anglash, inson ruhiy kamoloti kabi irfoniyy va hayotiy g'oyalari G'afur G'ulom poetikasining o'zagini tayin etadi.

Quyidagi satrlar esa faylasuf shoirimizning zuyu bizga, kelajak avlodlarga mehr-muhabbat bilan bitilgan qalb da'vatidek jaranglaydi: Aziz umrimizning aziz onlari Aziz odamlardan so'raydi qadrin. Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la Bezamoq chog'idir umr dattarin.

Shavkat HASANOV, filologiya fanlari doktori, professor. Gulbahor ERNAZAROVA, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Toshmurod aka bilan bir fakultetda o'qiganmiz, 1973-yilda SamDU o'zbek va tojik filologiyasi fakulteti kombyuro raisligini u kishidan olgandim. 1972-yilda a'loch va faol talabalar res-publika slyotida ham birga qatnashganmiz. Taqdirni qarangi, 1988-1989-yillarda viloyat partiya qo'mitasida ham birga ishladik. Xullas, bir-birimizni yaxshi bilishimiz uchun vaqt yetarli bo'lgan. Buning ustiga, hamkasbim Jamol Tursunov (joyi jannatdan bo'lsin) kursdoshi bo'lganligi uchun Toshmurod aka yashaydigan Nayman qishlog'iga bizni boshlab borardi. Izzatoy yangam bizlarga dasturxon tuzashdan og'rinmasdi.

Gap shundaki, men bu insonning qalбини anglab yetganman. Talabaligidayoq (ehtimol texnikumni bitirib kelgani uchunmi) unga domlamizdek murojaat qilardik. Axir davlat stipendianti, qolaversa, iqtidorli talabaning salohiyati shunday bo'ladi-da. Domlalar ham Toshmurod akening qadrini joyiga qo'yishardi.

T.Jabborov garchi diplomni olgandan so'ng ichki ishlar tizimiga o'tgan bo'lsa-da, ilmini ma'kul ko'rди. IIB oliy maktabida o'qidi. O'zgina tajriba orttirgach esa uning akademiyasida tahsil olib, fan nomzodi degan mavqega erishdi. Kamgina bo'lsa-da, ilm bilan

"O'zingda yo'g'ini birovdan ololmaysan"

Huquqshunos va olim Toshmurod Jabborovni yo'qlab



shug'ullanganlar bunday yutuqlarga erishish qanchalik murakkab ekanligini yaxshi bilishadi. Lekin T.Jabborov hamisha hushyor va shavqli bo'lib ishladi.

1988-yilda u kishi bilan viloyat partiya qo'mitasida birga ishladik. Dadilligi va jasoratiga qoyil qolardim, har bir topshiriqqa mas'uliyat bilan yondashishiga havas qilardik. Yig'ilishlarda muammoni ham ko'ndalang qo'ya olardi. Ana shundan keyin u kishi an-

cha vaqt Kattaqo'rg'on tumani sudining sudyasi vazifasida ishladi. Pensiyaga chiqqach esa advokatlik faoliyati barobarida Samarqand qishloq xo'jaligi institutida talabalarga dars berdi.

T.Jabborov bag'rikeng, shu bilan birga, talabchan ziyoli edi. U kishi avvalo, o'ziga talabchan edi. Har suhbatning birida "Ukalar, o'zingizda yo'q narsani birovdan ola bilmaysiz, har narsaga havas qilmang, o'zingizga ishonang", deb qayta-qayta aytardi.

Toshmurod aka oddiy bo'lsa-da, ma'rifatli oilada katta bo'lgan. Aka-ukalarning barchasi oliy ma'lumot olgani ham fikrimizning isbotidir. Zero, o'zining besh nafar farzandi ham oliy ma'lumot olib, bugun el xizmatida.

Taniqli hamkasbim Jamol aka Tursunov do'sti haqida doim bir gapni takrorlardi: "Toshmurod toshday qat'iyatli, albatta, murodiga yetadigan odam. Bunday fazilatlar doim jamiyatda beiz qolmaydi". Haq gap, bu-gun Toshmurod akani bir kursdosh, birov sifndosh, birov safdosh, birov ustoz, xullas, yaxshi odam sifatida yo'qlab turibdi. Boqiylik degani ana shu bo'lsa kerak-da.

Farmon TOSHEV.

Kamtarlikning ulug'ligi

Professor Farhod Nosirov hayotiga bir nazar

Ushbu maqola biror sana munosabati bilan yozilgan emas. Biz mushtariylarga yonimizda yashayotgan kamtarin, lekin ilmga ishtiyoqli olimning ibratli hayotini aytib o'tmoqchimiz, xolos.

Farhod aka O'zbekiston ahli yaxshi taniydigan "Shodi rais" nomi bilan tanilgan Shodi bobo Nosirov oilasida tug'ilib, voyaga yetgan. Garchi ota yurti Jizzax bo'lsa-da, Samarqandda tug'ilib o'sganligi uchun ana shu ko'hna kent zaminiga mehr qo'ygan odam.

Farhod aka katta davralarda qadash so'zi aytishdan tortinadi, ammo xalqaro anjumanlarda bulbulgoydek ma'ruza o'qiydi. Farhod aka hashamdor restoranlarda, to'ylarda va'z aytishdan tiyladi, lekin o'z uyidagi dasturxon atrofida samimiy suhbat bilan mehmonlar yuragiga kira oladi. Chunki otasi shunday tarbiya qilgan. Chunki u tabiatan shunday odam. Garchi o'ziga to'g' o'qilaning farzandi bo'lsa-da, Samarqand davlat meditsina institutida o'qigan, uni bitirib, Bulung'ur, Payariq tumanlarida ishlagan chog'larida o'z sohasining oddiy yumushlarini bajarishdan ham tortinmadi. Ilmini oshirish barobarida mahoratini ham pishitib bordi.

O'sha paytlarda sog'liqni saqlash boshqarmasi qayerda malakali shifokorlar yetishmay qolsa, albatta, viloyatdan jo'natardi, - deydi Farhod aka. - Men ikki-uch marta ana shunday holatga tushganman. Rad javob berish haqida o'ylab ham ko'rmaganman. Chunki o'sha yuboriladigan joyimda mening malakam kerakligini sezardim.

F.Nosirov amaliy faoliyati davomida otasining so'zlariga hamisha rioya qildi. Shodi bobo "Bolam, faqat ilmga insonga obro' keltiradi. Qayerda bo'lishingdan qat'i nazar, o'z sohangning ilmini egalla", degandi. Shu bois 1967-yilda Samarqanddagi parazitologiya ilmiy-tadqiqot instituti aspiranturasiga kirdi. U yerda dastlab ilmiy xodim, keyinchalik esa institut direktori vazifasini bajarishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Tashkilotchilikda tanilgan shifokor Samarqand tumanida sog'liqni saqlash bo'limi mudiri, Jizzax shahar partiya qo'mitasida mas'ul xodim bo'lib faoliyat ko'rsatdi.

Farhod akening asosiy suyangan maskani - bu Samarqand tibbiyot

universitetidir. Umrining katta qismini ana shu universitet auditoriyalari, kutubxona va laboratoriyalarida o'tkazdi. Nomzodlik va doktorlik ilmiy unvonlarini ham aynan shu yerdagi tadqiqotlari hisobiga oldi. Domlaning albomlarini varaqlasangiz, chinakam tibbiy ensiklopediyani ko'rgan bo'lasiz. Nafaqat O'zbekiston, balki Germaniya, Fransiya, Vengriya, Italiya, AQSh, Rossiya, Belarus, Litva, Ozarbayjon, Armaniston, Ukrainada bo'lgan xalqaro anjumanlardagi ma'ruzalari, taniqli olimlar bilan muloqotlari u kishining salohiyatini ko'rsatib turibdi.

Biz, turmush o'rtog'im Rohatoy bilan bir sohada bo'lganligimiz uchun doimo bir-birimizni qo'llab keldik. 60 yillik baqamti hayotimiz davomida bir-birimizga ilmiy xulosalarda ekspertlik qildik. Buning ustiga uch nafar farzandni jamiyatga munosib qilib voyaga yetkazdik, - deydi Farhod aka. - Darvoqe, turmush o'rtog'imdan ham ko'p narsalarni o'rganganman. Rohatoy 1995-yilda Shimoliy Karolina shtati Biografiya instituti xalqaro ilmiy kengashi tomonidan o'tkazilgan tanlovda "Yil odami" unvoni sohibi bo'lgan edi.

Farhod aka hozir ham vaqtning katta qismini kitob o'qish, maqola yozish va yosh hamkasblariga ta'lim berish bilan o'tkazadi. Mabodo u kishining davrasiga tushib qolsangiz, suhbatini yana sog'inasiz. Chunki falon umr kechirgan, ilmini, ma'rifatni hayotining shiori deb bilgan bunday odamlarning suhbatlari doimo ko'nglingizga iliqlik bag'ishlaydi. Ularning xulosalaridan keyin hayotni, ayniqsa, bugungi murakkab jarayonlarni yanada teranroq anglay boshlaysiz.

Mamarizo ABDURAHMONOV, Iskandar TEMIROV.

Yonimizdagi odamlar



Yurtimizda yoshlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda dasturlash sohasini chuqur egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Chunki bu soha zamonaviyligi va daromadliliigi bilan ajralib turadi.

Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 19 milliondan ortiq yoki aholining 55 foizini tashkil qiladi. Mehnat bozoriga har yili 600 ming yosh kirib kelayotgan bo'lsa, kelgusi 10 yilda bu raqam 1 millionga yetadi. Shu bois yoshlarga sifati va zamonaviy ta'lim berish, kasb-hunarga o'qitish, IT sohasiga jalb qilish va uni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda IT Park rezidentlari 2,5 trillion so'mlik xizmatlar ko'rsatgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 5 trillion so'mni tashkil etgan. Xizmatlar eksporti hajmi 2021-yilda 50 million dollar edi, o'tgan yili 140 million dollarga yetdi. Ya'ni bu sohada yiliga ikki-uch baravar o'sish kuzatilmoqda. IT rivojlangani sari dunyo bozorida o'zbekistonlik

IT sohasida yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda

dasturchilarga ham talab ortib bormoqda. Joriy yilning 11-aprel kuni Prezidentimiz raisligida yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimini joriy etish borasidagi dolzarb vazifalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda Yurtboshimiz IT sohasini rivojlantirishga oid yangi imkoniyatlar berilishini ta'kidladi. Xususan, davlatimiz rahbari "Yangi O'zbekiston yoshlari tashabbuslari" jamg'armasi va elektron platformasi tashkil qilish taklifini ilgari surdi. Shuningdek, jamg'armaga 100 million dollar yo'naltirish hamda bu mablag'lar iqtidorli yoshlarning eng yaxshi g'oyas, startap va loyihalariga qulay va yengil shartlarda, zarur bo'lsa, foizsiz va garovsiz ajratilishi aytildi.

Bundan tashqari, yig'ilishda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalariga e'tibor qaratilib, 100 mingdan ortiq yoshlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada ular

mahallasida sport bilan shug'ullanishga sharoit hamda ko'ngilochar maskanlar yetishmasligini bildirganligi qayd etildi. Shundan kelib chiqib, viloyat markazlarida, keyinchalik tumanlarda kechayu kunduz ishlaydigan yoshlar sayilgohlari tashkil etish vazifasi qo'yildi. Ularda sport, kibersport va intellektual o'yinlar, kitobxonlik, karaoke uchun sharoitlar ko'zda tutildi. Shuningdek, har bir tumanda "Yoshlar sayli" va ijod ko'chalar, oliy o'quv yurtlarida sport ligalari, kovorking va teatr studiyalari tashkil qilinadi. Ushbu yangi imkoniyatlar avvalo, yoshlar bandligini ta'minlash, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, IT va dasturlash sohasidagi startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash hamda raqamlashtirish texnologiyalarini joriy etishda qulaylik yaratadi.

Javansher ASLAMOVI, IIB akademiyasi kursanti.

MATBUOT UYI Zarafshon Samarqandskiy Vestnik

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi Bosh muharrir: Farmon TOSHEV Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 772 nusxada chop etildi. Buyurtma 241. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2. Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi. QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56 BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61 MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi. «Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy. Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV. Navbatchi: S.MARDIYEV. Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV. Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X 9 1772010667009 Sotuvda narxi kelishilgan holda